MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR KAMOLOTIDA TASVIRIY FAOLIYATNING O‘RNI

Po‘lotov Foziljon Usibjonovich
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxasislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar kamolotida tasviriy faoliyatning pedagogik va psixologik ahamiyati tahlil etilgan. Tasviriy faoliyat bolaning estetik didi, ijodiy qobiliyati, tasavvuri, tafakkuri, mayda motorikasi, nutqi, hissiy-irodaviy holati hamda ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim vositalaridan biri sifatida yoritilgan. Shuningdek, rasm chizish, bo‘yash, loy va plastilin bilan ishlash, applikatsiya, konstruktiv faoliyat kabi mashg‘ulotlarning bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga ta’siri ochib berilgan. Maqolada tasviriy faoliyatni tashkil etishda pedagogning roli, bolaga ijodiy erkinlik berish, individual yondashuv va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalariga ham alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, bola kamoloti, tasviriy faoliyat, ijodkorlik, estetik tarbiya, tasavvur, tafakkur, mayda motorika, rasm chizish, applikatsiya, plastilin, pedagogik faoliyat.*

Аннотация

В данной статье анализируется педагогическое и психологическое значение изобразительной деятельности в развитии детей дошкольного возраста. Изобразительная деятельность рассматривается как одно из важных средств развития эстетического вкуса, творческих способностей, воображения, мышления, мелкой моторики, речи, эмоционально-волевой сферы и социальных навыков ребёнка. Кроме того, раскрывается влияние таких видов деятельности, как рисование, раскрашивание, лепка из глины и пластилина, аппликация и конструирование, на всестороннее развитие личности ребёнка. Особое внимание уделяется роли педагога в организации изобразительной деятельности, созданию условий для проявления творческой свободы детей, реализации индивидуального подхода, а также использованию современных педагогических технологий в образовательном процессе дошкольной образовательной организации.

Ключевые слова: *дошкольное образование, развитие ребёнка, изобразительная деятельность, творчество, эстетическое воспитание, воображение, мышление, мелкая моторика, рисование, аппликация, пластилин, педагогическая деятельность.*

Annotation.

This article analyzes the pedagogical and psychological significance of visual arts activities in the development of preschool-aged children. Visual arts activities are presented as one of the key means of developing children's aesthetic appreciation, creative abilities, imagination, thinking, fine motor skills, speech, emotional and volitional development, as well as social skills. Furthermore, the article explores the influence of various activities, including drawing, coloring, working with clay and plasticine, collage and appliqué, and constructive activities, on the comprehensive development of a child's personality. Particular attention is paid to the role of the teacher in organizing visual arts activities, providing children with creative freedom, implementing an individualized approach, and utilizing modern pedagogical technologies in the educational process.

Key words: *preschool education, child development, visual arts activities, creativity, aesthetic education, imagination, thinking, fine motor skills, drawing, appliqué, plasticine, pedagogical activity.*

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida bolaning har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri inson hayotidagi eng muhim rivojlanish bosqichlaridan biri bo‘lib, aynan shu davrda bolaning bilishga bo‘lgan qiziqishi, ijodiy qobiliyati, estetik didi, hissiy munosabatlari, muloqot ko‘nikmalari va dastlabki ijtimoiy tajribasi shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida o‘yin, mehnat, muloqot va turli ta'limiy faoliyatlar bilan bir qatorda tasviriy faoliyat ham alohida o‘rin tutadi. Bola rasm chizish, bo‘yoqlar bilan ishlash, qog‘ozdan turli shakllar yasash, loy yoki plastilindan buyumlar yaratish jarayonida nafaqat ma'lum bir tasvirni hosil qiladi, balki o‘zining ichki kechinmalari, tasavvurlari va atrof-muhit haqidagi tushunchalarini ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tasviriy faoliyatning muhim jihati shundaki, u bolaning bir vaqtning o‘zida bir necha psixik jarayonlarini faollashtiradi. Bola predmetni kuzatadi, uning shakli, rangi, hajmi va joylashuvini farqlaydi, uni xotirasida saqlaydi, tasavvur qiladi va

qog‘oz yoki boshqa material orqali ifodalashga harakat qiladi. Demak, oddiy ko‘rinadigan tasviriy faoliyat jarayoni ortida murakkab bilish jarayonlari yotadi.

Tasviriy faoliyat — bolaning borliqni turli badiiy vositalar yordamida tasvirlash, o‘z fikri, tasavvuri va hissiy munosabatini ifodalashga qaratilgan ijodiy faoliyatidir.

Maktabgacha ta’lim jarayonida tasviriy faoliyatning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

- rasm chizish;
- applikatsiya;
- loy va plastilin bilan ishlash.

Ushbu faoliyat turlarining har biri bolaning rivojlanishiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, rasm chizish orqali bola rang va shakllarni farqlashni o‘rganadi, loy bilan ishlash esa uning qo‘l barmoqlari harakatini takomillashtiradi. Applikatsiya jarayonida bola predmetlarni qismlarga ajratish, ularni joylashtirish va yaxlit obraz yaratish ko‘nikmasini egallaydi.

Tasviriy faoliyatning asosiy xususiyati — bolaning unda faol ishtirok etishi va ijodiy mahsulot yaratishidir. Shu sababli u oddiy bilim berish vositasi emas, balki bolaning shaxsiy tajribasini boyituvchi rivojlantiruvchi faoliyat sifatida qaralishi lozim.

Tasviriy faoliyatning bolaning aqliy rivojlanishidagi ahamiyati shundaki bola rasm chizish yoki biror predmet yasashdan oldin uni kuzatadi, o‘rganadi va uning asosiy belgilarini ajratib olishga harakat qiladi. Bu jarayon bolaning idrok, xotira, tafakkur va tasavvur jarayonlarini rivojlantiradi.

Masalan, tarbiyachi bolalarga daraxt rasmini chizishni taklif qilganda, bola avvalo daraxtning tanasi, shoxlari, barglari va rangiga e’tibor beradi. U predmetni qismlarga ajratib o‘rganadi va keyinchalik ularni yaxlit obrazga birlashtiradi. Bu esa bolaning analiz va sintez qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Tasviriy faoliyat davomida bola:

1. predmetlarni kuzatadi;
2. ularning asosiy belgilarini aniqlaydi;
3. o‘xshash va farqli jihatlarini ajratadi;
4. o‘z tasavvurida obraz yaratadi;
5. uni grafik yoki plastik shaklda ifodalaydi.

Shu jihatdan tasviriy faoliyat bolaning mantiqiy fikrlashiga ham zamin yaratadi.

Bundan tashqari, bola o‘z ijodiy ishini rejalashtirish jarayonida “avval nima qilaman?”, “qaysi rangdan foydalanaman?”, “predmetning qaysi qismini qayerga

joylashtiraman?” kabi savollarga ichki ravishda javob izlaydi. Bu esa dastlabki rejalashtirish va muammoli vaziyatni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Ijodkorlik bolaning shaxsiy rivojlanishida muhim sifat hisoblanadi. Maktabgacha yosh davrida ijodkorlikni rivojlantirish uchun bolaning erkin fikrlashi va o‘z g‘oyalarini ifodalashiga imkon berish zarur.

Tasviriy faoliyat aynan shunday imkoniyat yaratadi.

Masalan, tarbiyachi bolaga:

“Quyoshni qanday tasavvur qilasan?” yoki “O‘zing xohlagan bog‘ni chiz”

degan topshiriq bersa, bola tayyor namunani takrorlashdan ko‘ra o‘z tasavvuriga tayanadi. Natijada turli bolalar bir xil mavzuni turlicha tasvirlashi mumkin.

Bu holat bolaning individual fikrlashini namoyon qiladi.

Ijodiy faoliyatda eng muhim jihat — faqat chiroyli yoki texnik jihatdan mukammal rasm yaratish emas, balki bolaning mustaqil fikr bildirishi, yangi obraz yaratishi va o‘z g‘oyasini ifodalashidir.

Shuning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini tashkil etishda pedagog bolaning ishini “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” deb keskin baholashdan saqlanishi lozim. Bolaning ijodiy tashabbusini qo‘llab-quvvatlash muhimdir.

Tasviriy faoliyat bolani estetik didini rivojlanishida ham muhim o‘rin tutadi. Estetik tarbiya bolaning go‘zallikni ko‘rishi, his qilishi, qadrlashi va uni yaratishga intilishi bilan bog‘liq.

Tasviriy faoliyat bolani ranglar uyg‘unligi, shakl, hajm, mutanosiblik, kompozitsiya va go‘zallik haqidagi dastlabki tushunchalar bilan tanishtiradi.

Bola tabiat manzaralarini kuzatar ekan, ranglarning turli xil ekanligini anglaydi. Masalan:

- osmonning ko‘k rangda bo‘lishi;
- daraxt barglarining yashil rangda bo‘lishi;
- gullarning turli ranglarda uchrashi;
- qorning oq rangda bo‘lishi

kabi tabiiy hodisalarni tasviriy faoliyat orqali mustahkamlaydi.

Biroq estetik tarbiya faqat ranglarni o‘rgatish bilan chegaralanmaydi. Bola o‘z ishida tartib, uyg‘unlik va go‘zallik yaratishga harakat qilishi orqali estetik ehtiyojlarini ham rivojlantiradi.

Bolaning jismoniy rivojlanishida tasviriy faoliyatning ham ahamiyati katta. Ayniqsa, barmoq va qo‘l muskullarining mayda harakatlarini rivojlantirish maktabga tayyorgarlik jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Qalam bilan ishlash, chiziqlar chizish, bo‘yash, qog‘oz kesish, yopishtirish, plastilinni ezish va shakllantirish kabi harakatlar bolaning qo‘l barmoqlarini mashq qildiradi.

Mayda motorikaning rivojlanishi bolaning:

- qalamni to‘g‘ri ushlashi;
- yozuvga tayyorlanishi;
- tugma taqishi;
- kiyim-boshini tartibga keltirishi;
- qaychi va boshqa oddiy vositalardan foydalanishi

kabi amaliy ko‘nikmalarini takomillashtiradi.

Shuningdek, qo‘l harakatlari va bilish jarayonlari o‘rtasidagi bog‘liqlik sababli bunday faoliyatlar bolaning umumiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tasviriy faoliyat bolaning nutqini rivojkanishida ham muhim o‘rin tutadi.

Tasviriy faoliyat jarayonida bola o‘z ishini tushuntirishga, tasvirlangan predmetlar haqida gapirishga ehtiyoj sezadi.

Masalan, bola o‘z rasmini namoyish etib:

“Men bog‘ chizdim. Bu yerda daraxtlar, gullar va qushlar bor. Quyosh chiqib turibdi” kabi gaplar tuzishi mumkin.

Bunday jarayon bolaning:

- so‘z boyligini kengaytiradi;
- gap tuzish qobiliyatini rivojlantiradi;
- o‘z fikrini izchil bayon qilishga o‘rgatadi;
- muloqotga bo‘lgan ehtiyojini oshiradi;
- o‘z ijodiy ishini sharhlash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Shu sababli tasviriy faoliyatni nutq o‘stirish mashg‘ulotlari bilan integratsiyalash samarali pedagogik yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bola o‘z his-tuyg‘ularini har doim ham so‘z orqali ifodalay olmaydi. Ba’zan bola o‘z kechinmalarini rang, shakl yoki obraz orqali ifodalashi mumkin.

Masalan, bola quvonchli voqeani yorqin ranglar orqali, o‘ziga yoqadigan obrazlarni esa rasmda aks ettirishi mumkin. Shu sababli tasviriy faoliyat bolaning o‘z hissiy holatini ifodalashining tabiiy shakllaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, rasm chizish yoki biror buyum yasash jarayoni boladan:

- sabr;
- diqqat;
- qat’iyat;
- ishni oxiriga yetkazish;

- xatolarni tuzatish;
- mustaqil qaror qabul qilish

kabi sifatlarni talab qiladi.

Demak, tasviriy faoliyat nafaqat ijodiy, balki bolaning irodaviy sifatlarini shakllantiruvchi vosita hamdir.

Tasviriy faoliyatning ijtimoiy rivojlanishdagi ahamiyati shundaki, bunda tarbiyachi tasviriy faoliyatni yakka tartibda ham, guruh bilan ham tashkil etish mumkin. Guruh bo‘lib rasm chizish, umumiy kompozitsiya yaratish yoki jamoaviy applikatsiya tayyorlash jarayonida bolalar bir-biri bilan hamkorlik qilishni o‘rganadilar.

Jamoaviy faoliyat davomida bolalar:

- o‘zaro fikr almashadi;
- materiallarni bo‘lishadi;
- bir-birining fikrini tinglaydi;
- navbat kutadi;
- yordam beradi;
- umumiy natija uchun mas’uliyatni his qiladi.

Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarda dastlabki ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Masalan, “Bizning bog‘imiz” mavzusida jamoaviy rasm yaratishda bir bola daraxtlarni, ikkinchisi gullarni, uchinchisi qushlarni, boshqa bola esa quyosh va bulutlarni tasvirlashi mumkin. Yakunda barcha bolalarning ishlari yagona kompozitsiyaga birlashtiriladi.

Bunday mashg‘ulot bola uchun ijodiy faoliyat bilan bir qatorda hamkorlik tajribasini ham beradi.

Tasviriy faoliyat samaradorligi ko‘p jihatdan pedagogning faoliyatni qanday tashkil etishiga bog‘liq.

Pedagogning asosiy vazifasi bolaga tayyor tasvirni ko‘chirtirish emas, balki uning mustaqil ijodiy faoliyatini rag‘batlantirishdan iborat.

Buning uchun pedagog:

- bolaga mavzuni tushunarli tarzda bayon qilishi;
- tasvirlanadigan predmetni kuzatish imkoniyatini yaratishi;
- turli materiallardan foydalanishni o‘rgatishi;
- ijodiy tajriba qilishga imkon berishi;
- bolalarning individual imkoniyatlarini hisobga olishi;
- bolaning mustaqil qarorlarini hurmat qilishi;
- ijobiy rag‘batlantirishdan foydalanishi lozim.

Ayniqsa, “hamma bir xil rasm chizishi kerak” degan yondashuv bolaning ijodiy mustaqilligini cheklashi mumkin.

Pedagog bolaga namuna ko‘rsatishi mumkin, biroq namuna bolaning ijodiy faoliyatini chegaralab qo‘ymasligi kerak.

Tasviriy faoliyatni tashkil etishda zamonaviy yondashuvlar ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy maktabgacha ta’limda tasviriy faoliyatni an’anaviy usullar bilangina cheklab qo‘ymasdan, turli innovatsion metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Jumladan:

“Erkin ijod” metodi

Bunda bolaga mavzu va material tanlashda imkon qadar mustaqillik beriladi.

“Tasavvurni davom ettir” metodi

Bolaga tugallanmagan shakl yoki chiziq berilib, undan mustaqil obraz yaratish so‘raladi.

“Ranglar orqali kayfiyatni ifodalash”

Bolalar turli ranglar yordamida o‘z kayfiyatlarini ifodalashga harakat qiladilar.

“Jamoaviy kompozitsiya”

Bir nechta bola bitta umumiy rasm yoki applikatsiyani yaratadi.

“Noan’anaviy rasm chizish”

Barmoq, gubka, paxta cho‘pi, barg, ip, tabiiy materiallar va boshqa vositalardan foydalanib tasvir yaratish mumkin.

Bunday usullar bolaning qiziqishini oshiradi va tasviriy faoliyatni yanada mazmunli tashkil etishga yordam beradi.

Tasviriy faoliyatni alohida mashg‘ulot sifatida tashkil etish bilan bir qatorda uni boshqa ta’lim yo‘nalishlari bilan integratsiyalash ham samarali natija beradi.

Masalan:

Tasviriy faoliyat + matematika:
geometrik shakllarni chizish, predmetlarni sanash, katta-kichik tushunchalarini mustahkamlash.

Tasviriy faoliyat + nutq o‘stirish:
rasm asosida hikoya tuzish, tasvirlangan predmetlar haqida suhbatlashish.

Tasviriy faoliyat + tabiat bilan tanishtirish:
o‘simliklar, hayvonlar, fasllar va tabiat hodisalarini tasvirlash.

Tasviriy faoliyat + musiqa:
musiqiy asar tinglangandan so‘ng unda hosil bo‘lgan taassurotni ranglar va obrazlar orqali ifodalash.

Tasviriy faoliyat + mehnat:
tabiiy materiallardan ijodiy buyumlar tayyorlash.

Bunday integratsiya ta’lim mazmunining yaxlitligini ta’minlashga yordam beradi.

Bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish faqat maktabgacha ta’lim tashkilotining vazifasi emas. Oila ham bu jarayonda muhim o‘rin egallaydi.

Ota-onalar uy sharoitida bolaga: qog‘oz, rangli qalam, bo‘yoq, plastilin, rangli karton, xavfsiz qaychi, tabiiy materiallar kabi vositalarni taqdim etishlari mumkin.

Eng muhimi, ota-ona bolaning ishini faqat natijasi asosida baholamasligi kerak. Masalan, “Nega buni bunday chizding?”, “Bu rasmda nimalar bor?”, “Bu rangni nima uchun tanlading?” kabi savollar orqali bolaning fikrlashini rag‘batlantirish mumkin.

Bolaning ijodiy ishlarini mazmunli tarzda muhokama qilish uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Tasviriy faoliyat bolaning rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatishi uchun bir qator pedagogik shartlarga amal qilish zarur.

Birinchidan, ijodiy muhit yaratilishi kerak. Bola o‘zini erkin his qiladigan, xato qilishdan qo‘rqmaydigan muhitda ijodiy faolroq bo‘ladi.

Ikkinchidan, individual yondashuv ta’minlanishi lozim. Har bir bolaning qobiliyati, qiziqishi va rivojlanish sur’ati turlicha.

Uchinchidan, materiallarning xilma-xilligi muhim. Faqat qalam va qog‘oz bilan cheklanib qolmasdan, plastilin, loy, tabiiy materiallar, rangli qog‘oz va boshqa vositalardan foydalanish bolalarning qiziqishini oshiradi.

To‘rtinchidan, ijodiy topshiriqlar ustuvor bo‘lishi kerak. Bolaga faqat tayyor namunani takrorlash emas, balki o‘z g‘oyasini yaratish imkonini berish maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, pedagog tomonidan ijobiy rag‘batlantirish amalga oshirilishi lozim.

Muntazam va maqsadli tashkil etilgan tasviriy faoliyat natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarda quyidagi sifat va ko‘nikmalar rivojlanishi mumkin:

Rivojlanish sohasi	Kutiladigan natija
Aqliy rivojlanish	Kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalari
Ijodiy rivojlanish	Yangi obraz va g‘oyalarni yaratish qobiliyati
Estetik rivojlanish	Rang, shakl va go‘zallikni his qilish
Jismoniy rivojlanish	Mayda motorika va qo‘l harakatlarining takomillashuvi
Nutqiy rivojlanish	So‘z boyligi va fikrni izchil ifodalash qobiliyati
Hissiy rivojlanish	His-tuyg‘ularni ifodalash va boshqarish

Ijtimoiy rivojlanish	Hamkorlik, muloqot va o‘zaro yordam ko‘nikmalari
Irodaviy rivojlanish	Diqqat, sabr, qat’iyat va ishni yakunlash ko‘nikmasi

Shunday qilib, tasviriy faoliyatni faqat “rasm chizish mashg‘uloti” sifatida baholash uning imkoniyatlarini toraytirib qo‘yadi. Aslida u bolaning rivojlanishining bir necha yo‘nalishlarini birlashtiruvchi kompleks pedagogik vositadir.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolaning har tomonlama kamol topishida muhim pedagogik vositalardan biridir. Rasm chizish, bo‘yash, applikatsiya, plastilin va loy bilan ishlash jarayonlari bolaning nafaqat tasviriy ko‘nikmalarini, balki uning tafakkuri, tasavvuri, xotirasi, diqqat-e’tibori, mayda motorikasi, nutqi, estetik didi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Tasviriy faoliyat bolaning ichki dunyosini ifodalashiga, atrof-muhitni o‘ziga xos tarzda anglashiga va o‘z fikrlarini ijodiy shaklda namoyon etishiga imkon beradi. Ayniqsa, ijodiy topshiriqlarning bolaning mustaqil fikrlashi va tashabbuskorligini rivojlantirishdagi ahamiyati katta.

Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatni tashkil etishda faqat texnik ko‘nikmalarni shakllantirish bilan cheklanmasdan, bolaning ijodiy salohiyatini ochib berish, mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlash va estetik dunyoqarashini rivojlantirish asosiy maqsadlardan biri bo‘lishi lozim.

Pedagog va ota-onalarning vazifasi esa bolaga tayyor yechimni berish emas, balki uning o‘z g‘oyasini yaratishi uchun qulay sharoit yaratishdan iborat. Bunday yondashuv natijasida tasviriy faoliyat bola uchun nafaqat qiziqarli mashg‘ulot, balki uning shaxsiy, intellektual, hissiy va ijodiy rivojlanishini ta’minlovchi samarali pedagogik vositaga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Yevstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. O`zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o`quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent 2022-yil

2. Выготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. — Москва: Просвещение, 1991.

3. Венгер Л. А. Педагогика способностей. — Москва: Знание, 1973.

4. Комарова Т. С. Изобразительная деятельность в детском саду. — Москва: Мозаика-Синтез.

5. Поддьяков Н. Н. Мышление дошкольника. — Москва: Педагогика, 1977.

6. Давыдов В. В. Проблемы развивающего обучения. — Москва: Педагогика, 1986.

7. Maxmudova O.A. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasini takomillashtirish // p.f.f.d.(PhD) dis.avtoreferati. – T.2022. 64 b.

8. Po‘lotov F.U. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy rivojlanishida tasviriy faoliyatning o‘rni. Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalar: filologiya va pedagogika soxasida zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish omillari. Xalqaro ilmiy-amaliy masofaviy konferensiya. -T.2020. 119-122 b.